



DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARI TAHLILINING IQTISODIY MAZMUNI VA AHAMIYATI

Kalandarova Feruzaxon Karimdjan qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobini yuritishda vujudga keladigan debitorlik va kreditorlik qarzlarning tahlilini iqtisodiy mazmuni va ahamiyati yoritilgan va ularni holatiga, tarkibiga, tashkil topish muddatlariga, yuzaga chiqish sababalariga, debitorlik va kreditorlik majburiyatlari bo'yicha dargumon qarzlarning yuzaga chiqishiga baho berildi.

Аннотация. В данной статье освещено экономическое содержание и значение анализа дебиторской и кредиторской задолженности, возникающей при ведении бухгалтерского учета хозяйствующих субъектов, и дана оценка их состояния, состава, сроков образования, причин возникновения, возникновения маловероятной задолженности по дебиторской и кредиторской задолженности.

Annotation. This article highlights the economic content and significance of the analysis of accounts receivable and payables arising from the accounting of business entities, and provides an assessment of their condition, composition, timing of formation, causes, and unlikely occurrence of accounts receivable and payables.

Kalit so'zlar. Debitorlik majburiyat, kreditorlik majburiyat, balans, tahlil, aylanuvchanlik koeffitsienti, aylanish davri, muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari.

Ключевые слова. Дебиторская задолженность, кредиторская задолженность, баланс, анализ, коэффициент оборачиваемости, период оборачиваемости, просроченная дебиторская и кредиторская задолженность.

Keywords. Accounts receivable, accounts payable, balance sheet, analysis, coefficient of rotatin, rotation period, overdue accounts receivable and accounts payable.



Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy operatsiyalarning ko'lam va murakkabligi ortib bormoqda. Moliyaviy barqarorlik va investitsiyaviy jozibadorlikni ta'minlashda debitor va kreditorlik qarzlari samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga muvofiq yuritish va auditorlik faoliyatini takomillashtirish har bir xo'jalik yurituvchi subyektlarining moliyaviy hisobotlarini ishonchli va shaffof qilishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Debitor va kreditorlik qarzlari noto'g'ri boshqarilganda, moliyaviy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatib, likvidlik muammolariga olib keladi. Korxonalarda debitor qarzlarning o'sishi ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatni mablag' bilan ta'minlashda uzilishlar keltirib chiqarishi mumkin, kreditorlik qarzlarning nazoratsiz oshishi esa qarzdorlik darajasining ortishiga va moliyaviy qiyinchiliklarga sabab bo'ladi. Shu sababli, debitor va kreditorlik qarzlari samarali boshqarish aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy mustahkamligi va ishonchli faoliyati uchun muhimdir. Shu sababli ham, debitorlik va kreditorlik qarzlarning tarkibiy tuzilishini va ularning vujudga kelish muddatlarini o'rganib, tahlil qilib chiqish muhim hisoblanadi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlar (qarzlari)ni tahlil etish orqali iqtisodiyotning turli bo'g'inlarida, sektorlarida hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish hamda barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda bank va moliya muassasalari tomonidan to'lov intizomi va hisob-kitoblarning o'z vaqtida o'tkazilishini ta'minlash, soliqlar va majburiy to'lovlarning to'liq to'lanishi masalalari bo'yicha amaldagi qonun hujjatlari normalariga qat'iy rioya etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni yo'lga qo'yish imkoni tug'iladi.

Firma va kompaniyalar o'z faoliyatlarida turli xil tashkilotlar bilan hisob-kitob aloqalarini amalga oshiradilar. Bu aloqalarda pulli to'lovlarni shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda bajarmay qolish voqealari ko'plab uchraydi, natijada debitorlik va kreditorlik qarzlari yuzaga keladi. Bunda korxona tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar kreditorlik majburiyatlari, olinishi lozim bo'lgan majburiyatlar esa debitorlik majburiyatlar hisoblanadi. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari quyidagicha sharh berish mumkin. Qarshi tomonga to'lanishim lozim



bo'lgan majburiyatlar kreditorlik majburiyatlari, qarshi tomondan olinishi lozim bo'lgan majburiyatlar debitorlik majburiyatlari deyiladi. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari hisob-kitoblarning doimiy yo'ldoshi hisoblanadi. Lekin ularning to'lov muddatining oshib ketishikorxonalar moliyaviy ahvoriga katta ta'sir o'tkazadi. Shu maqsadda korxonalar faoliyatini yuritishda debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini to'g'ri boshqarish masalasiga alohida ahamiyat beriladi.

Tahlil etishda korxonalarning muayyan davrga bo'lgan o'zaro debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining holatiga, tarkibiga, tashkil topish muddatlariga, yuzaga chiqish sababalariga, debitorlik va kreditorlik majburiyatlari bo'yicha dargumon qarzlarning yuzaga chiqishiga baho beriladi. Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar korxona balansi (1-shakl) hamda korxona va tashkilotlar tomonidan tuziladigan debitorlik va kreditorlik majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumot-nomadan (2a-shakl) olinadi. Shuningdek buxgalteriya hisobining analitik schyotlari ma'lumotlaridan foydalaniladi. Tahlil etishning asosiy maqsadi debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining aylanish davrini tezlashtirish asosida korxona moliyaviy holatini yaxshilash yuzasidan holatni baholash va chora- tadbirlar belgilashdan iborat. Firma va kompaniyalar moliyaviy hisobotining 2a-shakli «Debitorlik va kreditorlik qarzlarning haqidagi ma'lumotnoma» deb nomlanib, unda aks etgan ko'rsatkichlar to'lov qobiliyat, moliyaviy intizomga rioya qilinganlik va boshqa tashkilotlar bilan iqtisodiy aloqalarni holatiga baho berish uchun asosiy manbadir.

Debitorlik majburiyatlari tarkibi deganda uning yuzaga chiqish qatorlari yoki o'rni tushiniladi. Korxona balansi bo'yicha uning quyidagi qatorlarini tarkiblab o'tganmiz. Haridor va buyurtmachilarga bo'lgan debitorlik majburiyatlari, xodimlar bilan hisob-kitoblar bo'yicha debitorlik majburiyatlar, ish xaqidan ajratmalar yuzasidan debitorlik majburiyatlari, soliqlar va turli boshqa to'lovlar bo'yicha debitorlik majburiyatlari va x.k.

Shuningdek debitorlik va kreditorlik majburiyatlari tarkibida muddati o'tgan, to'lov muddati kelgan va to'lov muddati o'tmagan majburiyatlarni alohida tarkiblash mumkin. Muddati o'tgan, to'lov muddati kelgan majburiyatlar alohida hisobga olinadi va boshqariladi. Muddati o'tgan debitorlik majburiyatlar debitorlik va



kreditorlik majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotnomada alohida qatorlanadi. Ularning Respublika ichkarisidagi korxonalar va respublikadan tashqaridagi korxonalar o'rtasida muddati o'tgan majburiyatlarga ajratish mumkin. Muddati o'tkazib yuborilgan majburiyatlar korxona moliyaviy holatini og'irlashtiruvchi asosiy sabab faktori sifatida olinadi va muhim etibor beriladi. Tahlil etishda debitorlik majburiyatlarining xajmi tarkibi hamda vujudga kelish muddati bo'yicha o'rganish asosida ularning holatiga, aylanuvchanlik darajasiga, debitorlik qarzlari bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy holat ko'rsatkichlariga baho beriladi.

Debitorlik majburiyatlari yoki qarzlari tahlilida ularning aylanuvchanligiga alohida etibor beriladi. Negaki debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik darajasi korxona moliyaviy ahvoliga baho berishning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi deganda qarz majburiyatlarining undirib olish muddati va ularning aylanish koeffitsienti tushuniladi. Bu bevosita bugungi yuzaga kelgan majburiyatning necha kundan keyin naqd pulga aylanish darajasini xarakterlaydi.

Debitorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi sotishdan olingan tushumni debitorlik majburiyatlarining mavjud summasiga bo'lish asosida aniqlanadi:

$$\frac{\text{Debitorlik majburiyatlarining shartli aylanish koeffitsienti}}{\text{Debitorlik majburiyatlari o'tgan yil shu davri bo'yicha}} = \frac{\text{Sotishdan olingan sof tushum}}{\text{haqiqatda}}$$

$$\frac{\text{Debitorlik Majburiyatlarining}}{\text{Debitorlik majburiyatlari o'tgan yil shu}}$$



$$\text{shartli aylanish davri} = \frac{\text{davri bo'yicha}^*}{360}$$

Sotishdan olingan sof tushum xaqiqatda

Debitorlik majburiyatlarining mavjud summasini tahlil etish davrining kalendar kuniga ko'paytirish va sotishdan olingan sof tushum summasiga bo'lish asosida debitorlik qarzlarining aylanishlar kuni aniqlanadi.

Kreditorlik majburiyatlari qarshi tomonga korxonaning to'laydigan majburiyatlarini xarakterlaydi.

Kreditorlik majburiyatlarining yuzaga chiqishining asosiy sababi sifatida bevosita debitorlik majburiyatlarining vaqtida kelib tushmasligini ham ko'rsatish mumkin.

Kreditorlik majburiyatlarining tarkibi tahlilida qarzdor bo'lgan tomonlar bo'yicha majburiyatlarning qatorlanishi, ularni to'lash muddatlari bo'yicha tarkiblanishiga baho beriladi. Shuningdek debitorlik majburiyatlarining aylanish koeffitsienti va aylanish davrini aniqlashdagi kabi bunda ham kreditorlik majburiyatlarining aylanishi koeffitsienti va davri aniqlanadi. Lekin bunda qatnashuvchi ko'rsatkichlar farqlanadi. Kreditorlik majburiyatlari aylanishini o'rganishda asosiy ko'rsatkichlar sifatida nasiyaga olingan yoki hali puli to'lanmagan mollar, ashyolar, ish va xizmatlar summasiga hamda kreditorlik majburiyatlarining haqiqiy ko'rsatkichlariga murojaat qilinadi.

Kreditorlik majburiyatlarini to'lash muddatlari bo'yicha quyidagi tarkibini belgilash mumkin:

- to'lash muddati kelgan majburiyatlar
- to'lash muddati o'tib ketgan majburiyatlari

Yil kalendar davrining taqsimg'i bo'yicha kreditorlik majburiyatlarining qo'yidagi shakllarini belgilash mumkin:



- 1 oygacha bo'lgan majburiyatlar;
- 1 oydan 2 oygacha bo'lgan majburiyatlar;
- 3 oydan 6 oygacha bo'lgan majburiyatlar;
- 6 oydan bir yilgacha bo'lgan majburiyatlar;
- 1 yildan ortiq muddatga bo'lgan majburiyatlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida muddati o'tgan kreditor qarzlarni bo'lmaganligi ham moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi muhim omildir. Kreditorlik qarzlarni ham 90 kun ichida qaytarilganligi firma va kompaniyalar uchun ijobiy hol hisoblanadi.

Kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanligi sotishdan olingan tushumni kreditorlik majburiyatlarining mavjud summasiga bo'lish asosida aniqlanadi.

$$\begin{array}{l} \text{Kreditorlik} \\ \text{majburiyatlarining shartli} \\ \text{aylanish koeffitsienti} \end{array} = \frac{\text{Sotishdan olingan sof tushum}}{\text{Kreditorlik majburiyatlari o'tgan yil shu davri bo'yicha haqiqatda}}$$

Kreditorlik majburiyatlarining mavjud summasini tahlil etish davrining kalendar kuniga ko'paytirish va sotishdan olingan sof tushum summasiga bo'lish asosida debitorlik qarzlarning aylanishlar kuni aniqlanadi:

$$\begin{array}{l} \text{Kreditorlik} \\ \text{Majburiyatlarining} \\ \text{shartli aylanish davri} \end{array} = \frac{\text{Kreditorlik majburiyatlari o'tgan yil shu davri bo'yicha} *}{\text{Sotishdan olingan sof tushum xaqiqatda} * 360}$$



Xulosa qilib quyidagilarni aytish mumkin, debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili bu debitorlik va kreditorlik qarzlari holatiga baho berish va ularni nazorat qilishda juda muhim jarayon sanaladi. Debitorlik va kreditorlik qarzlari boshqarish va muddati o'tgan qarzlarni kamaytirish yuzasidan ko'riladigan chora tadbirlarning samaradorligi birinchi navbatda ushbu jarayonning qanday o'tkazilishiga bog'liq.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining oldini olish maqsadida quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish maqbuldir:

-o'zaro shartnomaviy munosabatlarda tomonlarning masulligini oshirish va ularning shartlariga qat'iy amal etish;

-muddati o'tkazib yuborilgan har qanday to'lovlar summasi bo'yicha xuquqiy javobgarlik choralari ko'rish;

- zamonaviy hisob-kitob shakllaridan foydalanish;

-dargumon qarzlari bo'yicha rezervlar tashkil qilish mexanizmini

ishlab chiqish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Vohobov A.V., Ibragimov A.T. Moliyaviy tahlil. TOSHKENT - «O'ZBEKISTON» - 2002.
2. Ibragimov A.K., Ochilov I. Qo'ziev I.N., Rizaev N.K. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. -T.: IQTISOD-MOLIYA,, 2008 -444 b.
3. A.G.Ibragimov, Z.R.Madaminova, M.E.Raxmataliyev. Moliyaviy menejment. – T.: «Barkamol fayz media», 2016- 232 bet.
4. A.Abdullayev, S.Maxmudov, U.Raximova, O/Maxmudov, A.Mamajonov. Iqtisodiy tahlil va audit. T-2018. 63b.
5. A.A.Karimov, J.E.Kurbanbayev, S.A.Jumanazarov. Buxgalteriya hisobi. -T.: IQTISOD-MOLIYA,, 2019-515 b.
6. Pardaev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. –T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. 2021. –B 588.



7. M.Yu.Raximov, N.N.Qalandarova. Moliyaviy tahlil. Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2019-267b.
8. Ochilov I.K, Temirxanova M.J «Finansoviy uchets» uchebnik, 2021 g
9. Koneva M.V. Razvitie ucheta i kontrolya debitorskoy i kreditorskoy zadoljennosti v stroitel'nykh organizatsiyax. – Avtoreferat dissertatsii k.e.n.. Krasnodar, 2021. – 27 b.
10. B.A. Xasanov, M.Y. Raximov, A.I. Aliqulov, N.Sh. Xajimuratov, N.N. Kalandarova va boshqalar. TOSHKENT “IQTISODIYOT” , 2022-347-364b.